

UMAR XAYYOM RUBOIYLARINING TASAVVUFY TALQINI MUAMMOSI

Gulinoza Qarshiyeva

Termiz davlat universiteti o‘zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi.

Sarvar Tuliboyev

Ilmiy rahbar. TerDU o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19594433>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Umar Xayyom ruboiylarining tasavvufiy talqini masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shoir ijodiga nisbatan shakllangan “ishratparast shoir” haqidagi qarashlarni qayta ko‘rib chiqish va ruboiylardagi botiniy ma‘nolarni ochib berishdan iborat. Shuningdek, Xayyomning ilmiy-falsafiy merosi hamda matematika va astronomiya sohasidagi faoliyatining uning poetik tafakkuriga ta‘siri yoritiladi. Maqolada ruboiylarda uchraydigan “may”, “soqi”, “ko‘za” kabi obrazlar tasavvufiy ramzlar sifatida talqin qilinadi. Xayyom ijodining falsafiy-estetik mohiyati va uning jahon adabiy tafakkuridagi o‘rni ham baholanadi.

Kalit so‘zlar: Umar Xayyom, ruboiy, tasavvufiy talqin, botiniy ma‘no, ramz, falsafiy meros, Sharq uyg‘onish davri.

Abstract. This article analyzes the Sufi interpretation of the rubaiyat of Omar Khayyam, one of the most prominent thinkers of the Eastern Renaissance. The study aims to reconsider the common perception of Khayyam as merely a hedonistic poet and to reveal the deeper spiritual meanings embedded in his quatrains. It also examines the influence of his scientific and philosophical legacy, particularly in mathematics and astronomy, on his poetic worldview.

Traditional images such as wine, cupbearer, and jug are interpreted as Sufi symbols. The philosophical and aesthetic essence of Khayyam’s poetry and its place in world literary thought are also evaluated.

Keywords: Omar Khayyam, rubaiyat, Sufi interpretation, inner meaning, symbol, philosophical heritage, Eastern Renaissance.

Sharq uyg‘onish davri madaniyati va ilm-fani tarixida Umar Xayyom (1048–1131) shaxsi o‘zining serqirraligi bilan alohida ajralib turadi. Odatda, ko‘p hollarda Xayyom nomi tilga olinganda, ko‘z oldimizda faqat ruboiy janrining ustasi bo‘lgan shoir gavdalanadi. Biroq, tarixiy manbalar va uning qoldirgan asarlari shuni ko‘rsatadiki, Xayyom o‘z davrining daho matematigi, astronomi va eng asosiysi, "shayx ur-raisi" Abu Ali ibn Sinoning munosib davomchisi bo‘lgan.

U o‘zini Ibn Sinoning shogirdi deb hisoblagan va hatto ustozini vafotidan yuz yil o‘tib ham uning asarlarini tushuntirib beruvchi eng ishonchli olim sifatida e‘tirof etilgan. Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad — Xayyom ijodidagi eng murakkab nuqta, ya‘ni ruboiylarning tasavvufiy va falsafiy talqini masalasini aniq manbalar asosida o‘rganishdir.

Umar Xayyom yashagan XI-XII asrlar islom dunyosida ham ilm-fan, ham diniy-falsafiy qarashlar keskin rivojlangan davr edi. O‘sha paytda Xayyomni zamondoshlari, xususan, Nizomiy Aruzining "Chahor maqola" asarida keltirilishicha, "Hujjatul-haq" (Haqiqat hujjati) deb ulug‘lashgan. Uning "Risolat ul-kavn vat-taklif" (Koinot va uning vazifalari) hamda ustozini Ibn Sino g‘oyalari asosida yozilgan "Risola fil-vujud" (Borliq haqida risola) kabi asarlari uning naqadar jiddiy faylasuf bo‘lganini isbotlaydi.

Shunga qaramay, XVIII asrga qadar uning ruboiylari haqida jiddiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Faqat 1859-yilda ingliz shoiri Edvard Fitsjerald tomonidan amalga oshirilgan tarjimalardan so'ng, Xayyom nomi jahon miqyosida she'riyat yulduzi sifatida porladi. Ammo aynan mana shu tarjimalar tufayli G'arbda Xayyomga nisbatan "shunchaki hayot lazzatlarini kuylaydigan shoir" degan noto'g'ri tasavvur shakllanib qoldi.

Aslida, Xayyom ruboiylaridagi "may", "soqi", "ko'za" va "ishq" kabi obrazlar tasavvufiy ramzlar bo'lib, ularning ortida botiniy ma'nolar yotadi.

Masalan, uning ruboiylaridagi "may" — bu insonni mast qiluvchi ichimlik emas, balki ilohiy ma'rifat va haqiqatni anglash nashidasidir.

"Ko'za" esa inson tanasining ramzi bo'lib, u vaqt o'tishi bilan tuproqqa aylanishi va borliqning doimiy aylanishi haqidagi falsafiy g'oyani ilgari suradi. Buyuk mutarjim Shoislom Shomuhamedov "Al-fanos" majmuasidagi tadqiqotlarida aytganidek, Xayyomning ruboiylari avval tafakkurda tug'ilib, keyin qalb qo'riga yo'g'rilgan hikmatlardir.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ham Xayyom ruboiylari soni va ularning haqiqiyliigi bo'yicha bahslar to'xtagani yo'q. Eronlik olim Muhammad Ali Faro'g'iy va rus sharqshunosi V. Jukovskiy kabi mutaxassislar unga nisbat beriladigan ruboiylar 1200 tagacha yetishi aytilsa-da, aslida ularning ichida "darbadar" (boshqa shoirlarga tegishli) ruboiylar ko'pligini isbotlashgan. Akademik Sh. Shomuhamedov va Jamol Kamol tarjimalari orqali bizga yetib kelgan asl meros ancha kam va saralangan. Shuningdek, uning "Navro'znoma" asaridagi tarixiy ma'lumotlar Xayyomning nafaqat aniq fanlar, balki sulton Malikshoh saroyidagi nufuzi va milliy qadriyatlarimizni ham chuqur bilganini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotimizda biz Xayyomni shunchaki shoir sifatida emas, balki dunyoviy va diniy bilimlarni o'zida birlashtirgan, borliqni aql elagidan o'tkazgan buyuk mutafakkir sifatida tahlil qilishni niyat qildik. Xayyom falsafasini tushunish — bu hayotning har bir lahzasini qadrlashni va borliqning cheksiz sir-asrorlarini anglashni o'rganish demakdir.

Ushbu ilmiy izlanishning asosiy poydevori sifatida Sharq va G'arb olimlarining Umar Xayyom ijodi bo'yicha to'plagan boy ma'lumotlari olindi. Ish davomida, asosan, akademik Shoislom Shomuhamedovning "Umar Xayyom" kitobi va uning ruboiylarga bergan chuqur ma'naviy-badiiy sharhlari, shuningdek, Jamol Kamol tomonidan fors tilidagi asl nusxadan to'g'ridan-to'g'ri o'zbekchaga o'girilgan tarjimalarining o'ziga xos tomonlari bir-biriga qiyoslab o'rganildi. Bu jarayonda asosiy tayanch nuqtasi sifatida XI asrda yashab ijod etgan Nizomiy Aruziy Samarqandiyning „Chahor maqola“ (To'rt maqola) asaridagi tarixiy qaydlar hamda bevosita Umar Xayyomning o'zi tomonidan hijriy 473-yilda (milodiy 1080-yillar) yozilgan „Navro'znoma“ asari, shuningdek, borliqning yaratilishi haqidagi „Risalat ul-kavn vat-taklif“ risolasi tanlab olindi.

Ma'lumotlarning to'g'riligini ta'minlash uchun matnlarning yashirin ma'nolarini tushunish va tarixiy voqealarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Xususan, G'arbda Xayyomni mashhur qilgan Edvard Fitsjeraldning 1859-yildagi tarjimalari va keyinchalik eronlik olim Muhammad Ali Faro'g'iy hamda rus olimi Valentin Jukovskiy tomonidan ishlab chiqilgan "haqiqiy ruboiylarni soxtasidan ajratish" qoidalari bugungi o'zbek adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqildi.

Bu esa Xayyom ruboiylarining shunchaki chiroyli she'r emas, balki chuqur diniy-falsafiy asosga ega ekanligini, ularning har birida buyuk bobomiz Ibn Sino falsafasining ta'siri borligini ilmiy isbotlashga xizmat qiladi.

Ishda qo'llanilgan manbalar zanjiri shuni ko'rsatadiki, Xayyom merosini o'rganishda shoirning matematik va astronomik bilimlari bilan uning she'riyatidagi mantiqni birlashtirish eng to'g'ri yo'ldir. Bu esa mustaqillik yillaridagi Xayyomshunoslikning nafaqat til jihatidan, balki tarixiy va ilmiy jihatdan ham qanchalik asosli ekanligini tasdiqlaydi.

Umar Xayyom ruboiylarining tub mohiyatini anglash — bu shunchaki she'rxonlik emas, balki buyuk bir olimning qalb olamiga, uning koinot va inson haqidagi o'ylari silsilasiga kirish demakdir. Ushbu jarayonni har tomonlama chuqur tahlil qilish va uning o'quvchiga ko'rinmaydigan qatlamlarini ochish uchun biz uni uchta asosiy yo'nalishga ajratdik: tarixiy haqiqiylik, yashirin timsollar tartibi va ilmiy-falsafiy xulosalar.

1. Tarixiy silsila va o'rganish usullari

O'zbekiston xayyomshunosligi o'zini jahon ilm-fani va qadimiy adabiy maktabimizning munosib davomchisi deb biladi. Biz tadqiqotimizda aniqladikki, Umar Xayyom nomi bilan bog'liq bo'lgan meros o'z ichiga juda ko'p "begona" she'rlarni ham qamrab olgan. Dunyo kutubxonalarida Xayyomga nisbat beriladigan 1200 dan ortiq ruboiylarning hammasi ham uniki emasligi bugungi kunda ilmiy isbotini topgan. Bu borada 1859-yilda ingliz shoiri Edvard Fitsjerald tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar G'arb dunyosida katta shov-shuvga sabab bo'lgan bo'lsa-da, u ko'proq shoirning hayotga zavq bilan qarashini, o'tkinchi dunyo lazzatlarini bo'rttirib ko'rsatgan edi. Bu esa Xayyom shaxsi haqida bir tomonlama tasavvurning shakllanishiga olib keldi.

Biroq, keyinchalik eronlik taniqli olim Muhammad Ali Faro'g'iy va bizning buyuk olimimiz Shoislom Shomuhamedovlar Xayyomning haqiqiy ruboiylarini til va uslub jihatidan saralab, ularning soni aslida ancha kam, ya'ni taxminan 300 tacha ekanini ilmiy asoslab berishdi.

Bu jarayon shoir merosini asrlar davomida qo'shib qolgan soxta she'rlardan tozalashda va uning asl falsafiy qiyofasini tiklashda eng asosiy qadam bo'lib xizmat qildi. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, Xayyomni anglash — avvalo uning asl matnini soxtasidan ajratishdan boshlanadi.

2. Tasavvufiy ramzlar: "May" va "Ko'za" haqidagi bahslar

Xayyom ijodi atrofida asrlar davomida davom etib kelayotgan eng katta bahs va munozara — bu uning ruboiylaridagi "may" (sharob) obrazidir. Ayrim yuzaki qarovchi va she'rning faqat tashqi qobig'ini ko'radigan odamlar Xayyomni shunchaki ichkilikni va kayf-safoni kuylagan shoir deb xato o'ylashadi. Vaholanki, u o'z zamonasida "Hujjatul-haq" (Haqiqat hujjati) degan yuksak ilmiy unvonga ega bo'lgan daho edi. Bunday yuksak darajadagi insonning oddiy mayni ulug'lashi mantiqqa mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Aslida, Xayyom she'riyatidagi "may" — bu Allohning ishq, ma'rifat nuri va dunyo sirlarini anglashdan olingan cheksiz ruhiy zavqning ramzidir.

Masalan, uning mana bu mashhur ruboiysidagi har bir so'zning mazmuniga e'tibor beraylik:

May ichsang, oqil-u dono bilan ich,

Yoki bir gul yuzli zebo bilan ich.

Oz-oz ich, goh-goh ich, ham pinhona ich,

Etmagil fosh, ichsang — ma'no bilan ich.

Ushbu satrlarda shoir "ma'no bilan ich" deganda, ichkilik ichishni emas, balki har bir so'zdan hikmat izlashni, koinotning yaratilish sirlarini va hayotning asl mazmunini tushunishni nazarda tutmoqda. Bu yerda may — insonni dunyo tashvishlaridan qutqarib, ma'naviy poklanishga olib chiquvchi bir vositadir.

Yana bir markaziy obraz — "Ko'za" falsafasidir. Xayyom tafakkurida ko'za — inson vujudining moddiy ramzi hisoblanadi. Uning bu boradagi tahlillari shuni ko'rsatadiki, inson jismoniy jihatdan tuproqdan kelib, yana tuproqqa qaytadi, lekin uning ichidagi ilohiy ruh abadiy yashaydi. Shoir ushbu chuqur falsafani quyidagicha badiiy ifodalaydi:

Bu ko'za men kabi bo'lgan bir oshiq,

Zulfi parishonga bo'lgan u sodiq.

Ko'za dastasiga aylangan bu qo'l —

Yorning bo'ynidan quchgan edi loyiq.

Bu ruboiyda Xayyom borliqning doimiy aylanishi va materiyaning shakl o'zgartirishi haqidagi o'zining ilmiy qarashlarini she'riyat tiliga ko'chirgan. Ya'ni, bugun biz qo'limizda ushlab turgan jonsiz ko'za bir paytlar nafas olgan, sevgan va intilgan tirik inson bo'lgani haqidagi fikr o'quvchini chuqur o'yga toldiradi. Bu o'xshatish insonni o'zligini tanishga, kibrga berilmaslikka va har bir lahzani g'animat bilishga chorlaydi.

3. Ilmiy va falsafiy birlik.

Xayyomning buyuk matematik olimligi va astronomik daxosi uning ruboiylari qurilishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Agar diqqat bilan tahlil qilinsa, uning har bir ruboiysi xuddi aniq bir matematik masala yoki teorema kabi mantiqiy tartib bilan boshlanib, oxirida kutilmagan, ammo o'ta aniq ilmiy-falsafiy xulosaga keladi. Bu tasodif emas, balki olimning fikrlash tarzi mahsulidir.

Bizning mustaqillik davri olimlarimiz, xususan Jamol Kamol, Xayyomni shunchaki shoir emas, balki buyuk ustoz Abu Ali ibn Sinoning koinot va ruh haqidagi murakkab g'oyalarini xalqqa tushunarli ruboiy shaklida yetkazgan buyuk mutafakkir sifatida tahlil qilishadi. Uning „Navro'znoma“ asarida keltirilgan tarixiy-madaniy ma'lumotlarni uning she'riyati bilan qiyoslaganimizda, Xayyomning har bir so'zi o'z davrining eng yuksak ilmiy xulosalariga, yulduzlar harakati va tabiat qonuniyatlariga tayanib yozilgani ayon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Xayyom ruboiylari — bu ilm va san'atning, aql va qalbning go'zal uyg'unligidir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, Umar Xayyom ijodi insoniyat ma'naviy taraqqiyotida o'zining betakror o'rniga ega bo'lgan, ilm va badiiy tafakkur birlashgan noyob hodisadir.

O'tkazilgan kompleks tadqiqotlar va amalga oshirilgan manbashunoslik tahlillari asosida quyidagi yakuniy, ilmiy asoslangan xulosalarga keldik:

Birinchidan, Umar Xayyom shaxsini shunchaki ruboiy janri ustasi sifatida emas, balki o'z davrida "Hujjatul-haq" (Haqiqat hujjati) va "Shayxul-hukamo" (Donishmandlar yetakchisi) unvonlariga sazovor bo'lgan qomusiy olim, Abu Ali ibn Sinoning munosib davomchisi sifatida e'tirof etish tadqiqotimizning metodologik asosi hisoblanadi. Uning matematika sohasidagi (ayniqsa, algebraik tenglamalar va Evklid geometriyasiga bergan sharhlari) hamda astronomiyadagi (mashhur "Malikshoh taqvimi") yutuqlari ruboiylarining mantiqiy poydevorini tashkil etgan. Bu esa shoirning har bir satri tasodifiy hissiyot emas, balki chuqur ilmiy mushohada mahsuli ekanligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, shoir she'riyatining markazida turuvchi "may", "ko'za", "soqi" va "ishq" kabi obrazlar yuzaki yoki maishiy ma'noga ega emas. Bizning tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, ushbu timsollar tasavvufiy ramzlar bo'lib, inson ruhining abadiyligi, borliqning doimiy o'zgaruvchanligi va ilohiy haqiqatni anglash nashidasi sifatida talqin qilinishi shart. Xayyom ruboiylarini o'rganishda sho'ro davridagi ateistik mafkura ta'sirida shakllangan noto'g'ri va yuzaki qarashlardan butunlay voz kechish, mutafakkirning asarlarini o'sha davrning diniy-falsafiy muhiti (tasavvuf va kalom ilmi) kontekstida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, mustaqillik yillarida o'zbek xayyomshunosligida mutlaqo yangi, xolis bosqich boshlandi. Akademik Shoislom Shomuhamedov, Jamol Kamol va boshqa yirik olimlarimizning ko'p yillik sa'y-harakatlari natijasida Xayyom ruboiylari o'zining asl, milliy va diniy-falsafiy qiyofasini qayta tikladi. Bu jarayonda shoirning haqiqiy she'rlarini soxtalaridan ilmiy ravishda saralab olish va ularni shoirning o'z qalamiga mansub bo'lgan „Navro'znoma“ va „Risola fil-vujud“ kabi asarlari bilan qiyosiy ravishda o'rganish eng to'g'ri ilmiy yo'l ekanligi isbotlandi. Bu uslub Xayyomshunoslikda "ichki mantiqiy muvofiqlik" tamoyilini yuzaga chiqardi.

Xulosa qilib aytganda, Umar Xayyom falsafasini bugungi kun nigohi bilan o'rganish — bu shunchaki o'tmish merosini qo'msash emas, balki hozirgi globallashuv va turli mafkuraviy ziddiyatlar davrida insonni o'zini tanishga, borliq sirlarini aql bilan idrok etishga, hayotning har bir lahzasini g'animat bilib, uni ezgulikka sarflashga chorlashdir. Mutafakkirning o'lmas merosi yosh avlodda kuchli mantiqiy tafakkur, yuksak badiiy did va milliy qadriyatlarga sodiqlik tuyg'usini shakllantirishda beqiyos va o'rini bosib bo'lmas manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umar Xayyom. Navro'znoma (Fors tilidan J. Kamol tarjimasini). – Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1990.
2. Umar Xayyom. Ruboiylar (Fors tilidan Sh. Shomuhamedov tarjimasini). – Toshkent: "Yulduzcha", 1986.
3. Shomuhamedov Sh. Umar Xayyom: Hayoti va ijodi haqida monografiya. – Toshkent: "Fan", 1970.
4. Nizomiy Aruziy Samarqandiy. Chahor maqola (To'rt maqola). – Toshkent: "Adabiyot va san'at", 1986.
5. Ibn Sino, Abu Ali. Risola fil-ishq (Ishq haqida risola). – Toshkent: "Sharq" NMU, 2010.
6. Kamol J. Umar Xayyom ruboiylari va tasavvufiy talqin: Ilmiy maqola // "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. – 2015. – № 3.
7. Muhammad Ali Faro'g'iy. Ruboiyoti Umar Xayyom (Eron nashri). – Tehron: "Zavvor", 1941.
8. Sodiqov Q. Qadimiy yozma yodgorliklar tahlili va matnshunoslik asoslari. – Toshkent: "Akademnashr", 2012.